



Ne'mat Dushayev 1963-yilda Toshkent viloyati Angren shahrida tug'ilgan. "Saxiy xayolparast", "Sehrli tayoqcha", "G'alati bo'taloq", "Kim zo'r?", "Ular dovon yo'lini qurgan edilar", "Gurumdag'i gurunglar" she'riy va nasriy kitoblari

chop etilgan. 2005-yildan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi.



Mehnat qurollari nima deydi?

Ne'mat Dushayev

Bolg'a


Dangasa demang meni,
Men har ishda chaqqonman.
Bultur bir qop yong'oqni
Bitta o'zim chaqqanman.

Bir qop yong'oqqa, ehhe,
Qancha odam to'ymoqda.
Mix deysizmi, bolg'avoy
O'zi qoqib qo'yamoqda.



Ombur

Xato qilsa bolg'avoy,
Darrovda tuzataman.
Qiyshiq mixni sug'urib,
To'g'rilib uzataman.



Ikki jag'im – boyligim,
Ish ko'p, ulgurish kerak.
Yordamlashib yuboring,
Mixni sug'urish kerak.



Panshaxa

Xashak o'rsa o'roqvoy,
Yig'ib, g'aram qilaman.
Bundan tashqari sabzi
Qazishniyam bilaman.

Uy-ro'zg'orga qarashib,
Yoz-u qish ishim "besh"-da.
Buyog'in so'rasangiz,
Barmoqlarim ham beshta.

Arra

Shoxmi, daraxt yo taxta
 Shart-shurt arralagayman.
 Hushyor bo'ling, qo'lingiz
 Yo'qsa, yaralagayman.

Usta duradgor bilan
 Hali ko'pdir ishlarim.
 Tishlarimmi, temirdan
 Og'rimaydi tishlarim.



- She'r qaysi mehnat quollarining nomidan yozilgan?
- Bolg'a va omburning qanday o'xshash tomonlari bor?
- Ish quollari kimlarga va nima uchun kerak?
- Mehnat quollari: bolg'a, ombur, panshaxa, arra nima dedi? Gapirib bering.
- She'r muallifi haqida nimalarni bilib oldingiz?



Topishmoqlarning javobini toping.

Urdim gup etdi,
Yer tagiga kirib ketdi,

Tishlagan yerini uzar.

Og'zi yo'q, tishi ko'p.

Siz ham biror ish quroli haqida topishmoq tuzishga harakat qiling.

Topishmoqni tuzishda quyidagi tavsiyalardan foydalaning:

1. Biror narsa-buyum haqida o'ylang.
2. Uni ta'riflang.
3. Uni qaysi narsa bilan taqqoslash mumkinligiga e'tibor bering.
4. Mazkur narsa-buyumlardagi umumiy jihatlarni ajratib ko'rsating.



She'rdan qofiyadosh so'zlarni toping.

Izohli lug'atdan foydalanib, xashak, g'aram so'zlarining ma'nosini aytинг.

She'r misralaridagi xatolarni toping.

She'rni ifodali o'qing.

Dangasa demang uni,
 Men har ishda chaqqanman.
 Bultur bir qop yong'oqni
 Bitta o'zim chaqqonman.

Ikki tishim – boyligim,
 Ish ko'p, ulgurish kerak.
 Yordamlashib yubordim,
 Mixni sudurash kerak.

Shoxmi, daraxt yo paxta
 Shart-shurt arralagayman.
 Hushyor bo'ling, qo'lingiz
 Yo'qsa, yamalagayman.

Xashak o'rsa o'rtoqvoy,
 Yig'ib, g'aram qilaman.
 Bundan tashqari sabzi
 Qazishniyam bilmayman.



**Biror ish qurolini tanlab oling. Uni insonlarga
 qanday xizmat qilishi hamda qaysi mushkullarini
 oson qilishi haqida yozing.**